


## XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2024- yilning yanvar-mart oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 390,9 ming so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 25,2 % ga oshdi.

O‘rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni 2 180 ta korxonalar va tashkilotlarda tashkil qildi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati, foizda

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)





O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming so'm  
(2024- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)



SANOAT SOHASIDA




QURILISH SOHASIDA




SAVDO SOHASIDA




TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA



## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA



## BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA



## TA'LIM SOHASIDA



## SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR SOHASIDA



**2024- yilning yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlili:**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



**Sanoat** sohasidagi 59 ta korxonada va tashkilotlarda 49,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,8 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 937,1 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 32,1 %) tashkil etdi. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 6 381,5 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 37,8 % ga o'sdi.

**Qurilish** faoliyat turidagi 26 ta korxonada 1,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,8 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 19,5 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 4 010,1 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 31,9 % ga o'sdi.



**Savdo** faoliyat turidagi 12 ta korxonada 1,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,6 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 18,4 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 4 319,4 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 41,8 % ga o'sdi.

**Tashish va saqlash** faoliyat turidagi 11 ta korxonada 0,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 10,9 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 4 421,5 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 54,2 % ga o'sdi.



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** sohasidagi 2 ta korxonada 0,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 1,0 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,04 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 475,6 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga pasaygan.



**Axborot va aloqa** sohasidagi 8 ta korxonada 0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 22,5 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 8 202,2 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 27,9 % ga o'sdi.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik** iqtisodiy faoliyat turidagi 24 ta korxonada 3,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,7 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 148,7 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 5,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 12 144,6 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 21,5 % ga o'sdi.



**Ta'lim sohasi** iqtisodiy faoliyat turidagi 1 508 ta korxonada 96,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 43,0 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 969,7 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 33,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 385,5 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga o'sdi.

**Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi** dagi 72 ta korxonada 45,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 20,0 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 458,2 mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 15,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 3 338,4 ming soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 18,0 % ga oʻsdi.




**Sanʼat, koʻngil ochish va dam olish sohasidagi** 69 ta korxonada 2,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar 18,3 mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 3 065,5 ming soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 20,4 % ga oʻsdi.

**Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi** 389 ta korxonada 23,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,4 %) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar 313,1 mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi 10,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 4 460,2 ming soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,8 % ga oʻsdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng yuqori oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va 12 144,6 ming soʻmni tashkil etdi. Shuningdek yuqori koʻrsatkichlar sanoat faoliyat turida (6 381,5 ming soʻm) hamda axborot va aloqa faoliyat turida (8 202,2 ming soʻm) kuzatildi. Eng past koʻrsatkich esa Yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar faoliyat turida kuzatildi va 2 475,6 ming soʻmni tashkil etdi.


**Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2024- yil yanvar-mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (7 522,5 ming so‘m), Andijon shahrida (5 458,7 ming so‘m) kuzatildi. Aksincha, Bo‘ston va Baliqchi tumanlarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo‘ldi.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati, foizda**

(2024- yil yanvar-mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yil yanvar-mart oylarida; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'mda)

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>3 507,7</b>	<b>4 390,9</b>	<b>125,2</b>
<i>shaharlar</i>			
Andijon sh.	4 471,2	5 458,7	122,1
Xonobod sh.	3 207,0	4 239,1	132,2
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	2 601,3	3 059,6	117,6
Andijon	2 716,7	3 054,6	112,4
Baliqchi	2 476,9	2 683,6	108,3
Bo'ston	2 271,1	2 678,1	117,9
Buloqboshi	2 375,7	2 864,7	120,6
Jalaquduq	2 699,7	2 893,1	107,2
Izboskan	2 965,5	4 119,7	138,9
Ulug'nor	2 323,7	2 686,4	115,6
Qo'rg'ontepa	2 805,0	3 254,8	116,0
Asaka	5 082,1	7 522,5	148,0
Marhamat	2 766,6	3 080,2	111,3
Shahrixon	2 507,6	3 323,1	132,5
Paxtaobod	2 992,3	3 406,2	113,8
Xo'jaobod	2 466,3	2 909,0	117,9




**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining  
viloyat ko'rsatkichiga nisbati, foizda**  
(2024- yil yanvar-mart oylarida, qishloq xo'jaligi  
va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (7 522,5 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 71,3 % ga yuqori), Andijon shahri (5 458,7 ming so'm 24,3 % ga yuqori)da kuzatilgan bo'lsa, Bo'ston tumani 2 678,1 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 39,0 % ga past) va Baliqchi tumani (2 683,6 ming so'm, viloyat ko'rsatkichidan 38,9 % ga past)da kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:**

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2023-yil dekabr oyidan **1 050 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023- yil 23- nayabrdagi Q 65-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni** – o'zining ma'lum bir sanasiga, ya'ni birinchi yoki oxirgi sanasiga ko'rsatiladi. Bunda haqiqatda ishlayotganlar, vaqtincha ishlayotgan, biroq ishga rasman biriktirilganligi huquqini saqlab qolganlar ham hisobga olinadi. Bitta tashkilotning ichida ichki o'rindosh sifatida rasmiylashtirilgan xodim bir kishi sifatida hisobga olinadi. Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va boshqa mehnatga oid qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda keltirilganlar kiritiladi.

Quyidagi xodimlar mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar tarkibiga kiritilmaydi: boshqa tashkilotlardan o'rindoshlik bo'yicha ishga qabul qilinganlar; fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha ish bajaruvchilar; tashkilot tomonidan, ishdan ajralgan holda, ta'lim muassasalariga yuborilganlar.

**O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni** – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

**Ish vaqti**- korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

**Ish haqi**- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

**Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar**- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.